

ZULFIYA QUROLBOY QIZI HIKOYALARIDA AYOL TIMSOLI TALQINI

Ruziboyev Bobir Mirzakulovich

JDPU mustaqil tadqiqotchisi Samarqand viloyati Bulung'ur tumani 69-maktab ona tili
va adabiyot fani o'qituvchisi bobirruziyev16@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.21306790>

Annotatsiya: Ushbu maqolada Zulfiya Qurolboy qizi hikoyalarida ayol timsoli talqini, uning ruhiyati, hislari masalasi tadqiq etilgan. Ayollarning umr yo'ldoshi, farzandga munosabati, turli qarashlar tasvirining yozuvchi tomonidan aks ettirilishi tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: ayol obrazi, yetakchi qahramon, roviy, realistik yondashuv, ma'naviy-axloqiy masala, individual uslub, arxetipik obraz.

Zulfiya Qurolboy qizi hikoyalarida ayol timsoli talqini, uning ruhiyati, hislari masalasi birinchi o'rinda turadi. Ayol ma'naviyati, uning hikoyalarda aks ettirilishi yozuvchining individual uslubida, xususan, "tanlangan mazmunni muayyan shaklda ifodalashga yordam qiluvchi barcha badiiy vositalarning uzviy munosabatida, o'ziga xos chatishuvda"¹ yaqqol namoyon bo'ladi. Ayniqsa, Zulfiya Qurolboy qizining "Ayol", "Yolg'izlik qurboni" hikoyalarida ma'naviy-axloqiy masalalarning o'ziga xos talqini alohida e'tiborga loyiq.

Zulfiya Qurolboy qizining "Ayol" hikoyasida ayolning matonati, sabr-bardoshi, ruhiyati, ma'naviy dunyosi mahorat bilan tasvirlangan. Hikoya bosh qahramoni Nazokat og'ir betob bo'ladi. O'lim ostonasida turgan Nazokat hayotdan ketishni xohlamaydi. Asarda uning ruhiyati peyzaj, portret va predmet detallar ifodasida ta'sirchan chizilgan: "Devorlari oppoq xona. Deraza oynasidan to'kilayotgan oppoq nur ayolning yuzida jilva qildi, barmoqlaridagi uzukning olmos ko'zchalarida aks etdi. Quyosh nurlarini mo'l-ko'l to'kdi. Ayol oftob nuriga butkul g'arq bo'ldi..."². Muallif bu tasvirlarga uyg'un holatda qahramon ruhiyatini chizadi: "Qanday yoqimli... Tiriklikning yana bir tongi otdi, – ayol ko'zlarini yumib, quyosh nurlarini simirdi, keyin yana ohista pichirladi: – Seni qanchalik yaxshi ko'raman, quyosh!..."³ Tasvirdagi interyerdan ayolning kasalxonada ekanligi oydinlashadi. Uzuk singari predmet detali uning oilali ekanligiga ishora. Nazokatning quyoshga muhabbat izhor qilishi uning tongga, hayotga, tiriklikka bo'lgan ishtiyoqini ifodalaydi. Hikoya davomida yana bir obraz, ya'ni Nazokatning eri Shavkat obrazi talqiniga ham katta mazmun yuklangan. U xotinining kasalligini eshitgach, quyidagi holatga tushadi: "Nazokatning ahvoli yaxshi emas. Hozirligingizni ko'ravering. Shavkat boshini changallab qoldi"⁴. Bu bayondan ko'rinadiki, Shavkatning turmush o'rtog'iga mehri baland. Matnda keltirilgan "Shuncha qiynalgani yetmaydimi?.." kabi so'zlari uning ruhiyatini yanada aniq bayon etadi. Asarda Nazokatning portreti keltirilgan: "Nazokat uxlab yotardi. U juda ozib ketgandi. Qovoqlari ichga botib, yonoq suyaklari turtib chiqqan, chakka tomirlari ko'm-ko'k bo'lib bo'rtib turardi"⁵. Bu tasvir bosh qahramonning og'ir ahvolda ekanligini ifodalaydi. Quyidagi parchada muallif o'zbekona sharm-u hayoni matn zamiriga singdirib yuboradi: "Nazokat tikilib turgan nigohlarni his etdi, shekilli, asta ko'zini ochdi. – Yaxshimisan?.. – Tuzuk, – o'rnidan qo'zg'aldi Nazokat". Bemor bo'lsa-da, erining oldida cho'zilib yotishni o'ziga ep

¹ Худойбердиев Э. Адабиётшуносликка кириш – Тошкент: ЎАЖБНТ, 2008. – Б. 332.

² Куrolбой кизи З. Қадимий қўшиқ: ҳикоялар. – Тошкент: Ўзбекистон, 2012. – Б. 3.

³ O'sha manba. – B. 5.

⁴ O'sha manba. – B. 3.

⁵ O'sha manba. – B. 6.

ko'rmagan Nazokatning bu xatti-harakati uning ma'naviyatini, odobini ko'rsatadi. Ijodkor peyzaj orqali bosh qahramonning tugayotgan umriga ishora qiladi: "Havo sovigan, osmonda uvada bulutlar kezinar, quyosh xiragina nur sochar, qorning hidi kelardi". Havodagi sovuqlik, bulutlar bilan Nazokatning tanasini tobora egallab borayotgan kasallikni, quyoshning ojiz nur sochishi bilan Nazokatning yashashga bo'lgan umidini, qorning hidi hamda sovuq o'lim sharpalarini parallel uyg'un holda ko'rgan muallif hikoya davomida muhabbat tuyg'usining ifodasiga ham alohida e'tibor qaratadi: "Birdan kutilmagan hol yuz berdi. Nazokat yugurib kelib Shavkatning quchog'iga o'zini otdi. Avvallari hech ham bunday qilmasdi. – Biz faqat er-xotin emasmiz, undan ham yaqinroq bo'lib ketganmiz, a, dadasi? – dedi u erining ko'ksiga yuzini bosib"⁶. Keltirilgan parchadagi muhabbat tuyg'usi obraz harakati va nutqining o'zaro uyg'unlashuvi orqali ifodalangan. Buni yozuvchining o'ziga xos individualligi, uslubi deyish mumkin. Hikoyada ruhiyat tasviriga alohida urg'u beriladi: "Shavkat kuchli haroratni va ko'z yoshlarni tuydi. U qimir etolmay qoldi, nimadir deyishni, xotining ko'nglini ko'tarishni istadi, ammo tili aylanmadi. Ko'ksidan beixtiyor yana og'ir xo'rsiniq otilib chiqdi"⁷. Parchada keltirilgan harorat va ko'z yoshi ayolga tegishli. Tabiiyki, erkaklar ayollar oldida yig'lamaydi. Bunday vaziyatda ayoliga tirgak bo'lishni istaydi. Shavkatning esa ruhiy zo'riqish oqibatida tili aylanmay qoladi. O'zi xohlamagan holda tuyg'ulariga yengiladi. Bunday ruhiyat tasvirlari hikoyada ko'plab berilgan. Xususan, ayolning kasali borgan sari zo'rayadi. Natijada bosh qahramon o'z o'limini ruhan qabul qiladi: " – Bilaman, oz qolganini bilaman. Lekin bunday xunuk alfozda o'lishni istamayman. Istamayman!.." Nazokatning so'nggi so'zlari ayol ma'naviy qiyofasini yanada to'liq ifoda etadi. Ya'ni ayol o'z nomi bilan nozik xilqat. U go'zallikka intiladi.

Hikoya so'ngida ayol vafot etadi. U o'zi xohlaganday go'zal qiyofada qoladi. Bu qismda ham muallif tabiat tasviri va inson ruhiyatini birlashtiradi. Tun chekinishi hamda tong otishini o'limning g'alaba qilishi va ruhning ozod bo'lib boqiylikka ketishiga uyg'unlashtiradi. Bu hikoyalardan ko'rinadiki, kichik janrlar sirasiga kiruvchi hikoyalarda ham inson ma'naviy qiyofasini, uning ruhiy olami va undagi yozilmagan axloqiy qoidalar aksini keng hamda ta'sirchan ruhda ifodalash mumkin ekan. So'nggi davr hikoyachiligida inson ma'naviy-axloqiy dunyoqarashini yaratishdagi ijodkorlarning o'ziga xos individual xususiyati e'tirofga loyiq. Ularning yozuvchilik mahorati va uslubi hikoyalari tahlilida yanada oydinlashadi.

Zulfiya Qurolboy qizi qalamiga mansub "Yolg'izlik qurboni" hikoyasida yozuvchining o'ziga xos mahorati yanada yaqqol ko'zga tashlanadi. Har qanday talant asosida layoqat, qobillik, qodirlik turadi, layoqat o'ta sezgirlik va amaliyot bilan bog'liq. Ijodkorimiz ayol ruhiyati, his-tuyg'ularini gavdalantirishda sermahsul ijod qilgan. Quyidagi hikoyada yozuvchining bu qirralari bo'rtib ko'rinadi. Hikoya realistik metodga mansub. Bu hol mavzuni tanlash, tasvirlash va baholashda aniq ko'rinadi. Yozuvchi bosh qahramon Tamara hayoti misolida davrni, jamiyatdagi o'zaro munosabatlarni real jonlantirgan. Voqealar silsilasi sababiy bog'lanish orqali shakllanadi. Asarda Tamaradan tashqari eri, Ulfat, Dilor, Yasmina kabi obrazlar ishtirok etgan.

"O'tmish adabiyoti yutuqlarining kelgusi adabiyot tomonidan tanqidiy va ijodiy o'zlashtirilishi, bu muvaffaqiyatlarning mustahkamlanishi, anglanishi; shu orqali badiiy idrok

⁶ Куrolбой кизи З. Қадимий қўшиқ: ҳикоялар. – Тошкент: Ўзбекистон, 2012. – Б. 3.

⁷ O'sha manba. – B. 3.

etilishi an'anadir"⁸. Hikoyada insonlarning eng alamli armoni – farzandsizlik muammosiga murojaat qilingan. Shu bilan bir qatorda Tamara obrazi misolida uy, vaza, gullar kabi predmetlarni insondan, aniqrog'i, o'zining yaqin qarindosh-qondoshlaridan ustun qo'yuvchi salbiy xarakter yaratilgan. Bu masala doimo insonni tashvishga solgan jiddiy muammolardandir. Yozuvchi bu hikoyada an'anaviylikdan chekinmagan holda ishq-muhabbat, insonlarning bir-biriga bo'lgan mehrini qalamga oladi. Buni quyidagi lavhada kuzatish mumkin: "Ulfat akaning o'limidan keyin Tamara xola yolg'izlanib qoldi... Garchi befarzand bo'lsalar-da – qirq yillik turmushlarida eri bilan yomon yashamagandi. Farzand bo'lmaganidan keyin er-xotin bir-biriga qattiq suyanib qolarkan-da. Bunday er-xotinlarning qay biri ertaroq olamdan o'tsa, beva qolganining mash'um ayriliqqa ko'nikishi oson kechmas ekan"⁹. Yoki Diloraning bolasi Tamaraga ko'rsatgan mehribonchiligi, gap-so'zlari kitobxonda estetik zavq uyg'otadi. Tamaraning boshi og'riganida bolakay (arxetipik obraz) unga chora izlaydi: "Agar boshingizning mana bu yeri og'riyotgan bo'lsa, dori ichsangiz ham, ta'sir qilmaydi. Yaxshisi uxlaganingiz ma'qul, men uqalab o'tiraman. – Bolakay jajji qo'lchalari bilan ammasining boshini silay boshladi. – Agar mana bu yeringiz og'riyotgan bo'lsa, unda dori ichishingiz kerak. Ayam shunday qiladilar... Bolakayning bu so'zlaridan Tamara lol qoladi"¹⁰.

Novatorlik adabiyotning mazmunan va shaklan yangi qahramon, yangi ijodiy metod, yangi uslub, yangi badiiy aslaha bilan qurollanishi hamda boyishidir. Ushbu hikoya adabiyotning ana shu qonuniga bo'ysunib yozilgan. Unda ilg'or adabiy an'analar qayta ishlanadi va yangilanadi, zamon talabi, taqozosi, didi orqali rivojlantiriladi. Hikoyada Tamaraning murakkab xarakteri, psixologik vaziyatlardagi ruhiyati, yolg'izlikdagi o'y-xayollari tasviri va talqiniga keng o'rin berilgan. Bu ahvolda yashash og'ir edi. Azobki, cheki, chegarasi yo'q... Yolg'izlik, qayg'u-alam, armon – hammasi jamlanib, bir butun toshga aylanib yuragini shunday ezadiki... "Dod" solib hayqirgancha allaqayoqlarga bosh olib ketgisi keladi. Biroq qayoqqayam borardi? U yolg'izlikdan chiqishga, insonlarga qo'shilishga harakat qiladi. Lekin uning dunyoqarashida, xarakterida faqat o'zini o'ylash, o'zi uchungina yashash, "men"ini o'z dunyosiga o'rab olish va chetdagi ta'sirlardan qo'rqish juda kuchli edi. Ayniqsa, qaynisinglisi Diloraning berayotganda Tamara qiyinchilikdan qo'rqib uni rad etgan holatida o'ylagan o'ylari uning ma'naviy qiyofasini kengroq ochishga xizmat qilgan: "Mayli, Diloraning o'g'lini farzandlikka oldik ham deylik, – deya o'zining haqligini isbotlashga tushdi Tamara xola o'shanda. – Lekin biz uni qanday boqamiz? Bir marta uylariga borganda ko'rganman, o'sha bola ikkita patir nonni pok-pokiza tushirib olib, hech narsa ko'rmaganday onasidan: Yana nima bor yeyishga deb so'raganini". Er-xotin necha yillardan buyon faqat ikki kishi uchun ishlab, ikki kishilik xarajat uchun bosh qotirib o'rganib qolganlari uchun ham uchinchi bir odamning g'aminini yeyish, tashvishini qilish ular uchun ulkan, hal etilishi qiyin bo'lgan muammoday tuyiladi. Natijada, ular bir-biriga suyanib farzandsiz o'tadi. Ulfat aka o'lgach, Tamara xola yolg'iz qoladi. Yolg'izlikda o'tkazgan kunlari og'ir va zerikarli o'tadi: "Faqat juda zerikypman... yuragim siqilyapti... ilgari zerikkan vaqtimda kitob o'qirdim, ko'chalarni aylanardim. Endi bo'lsa bularning hech biriga hushim yo'q. Eh, hozir..." So'ngra u kalamushlar bilan

⁸ Султон И. Адабиёт назарияси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1980. – Б. 15.

⁹ Куролбой кизи З. Қадимий кўшиқ: ҳикоялар. – Тошкент: Ўзбекистон, 2012. – Б. 25.

¹⁰ Куролбой кизи З. Қадимий кўшиқ: ҳикоялар. – Тошкент: Ўзбекистон, 2012. – Б. 6.

suhbatlashadigan odat chiqaradi: “Hoy noinsoflar, podvalda turvolib chiyillayvermasdan bu yoqqa chiqsalarang-chi! Sal chalg’irmidim...” Beka ularni to’ydirish uchun narsa sochadi, ular bilan dardlashadi. Bu holat uzoq davom etgach, kalamushlar ham shu yerda qorin to’ydirishga o’rganishadi. U kasal bo’lib ancha yotganida ham kalamushlarini o’ylaydi. O’layotganida esa och jonivorlar uning tanasiga tish botirayotganini idrok qiladi va o’z hayotidan xulosa chiqaradi: “Mana, nihoyat men o’z yolg’izligimni ko’rdim... – deya shivirladi u o’zini xomtalash qilayotgan kalamushlarga qarab. – Butun hayotim davomida meni qurshagan yolg’izlik nihoyat o’zini ko’rsatdi...” Umrining oxirida aytgan so’nggi so’zlari uning hayotini belgilab berdi: “Men yolg’izlikka yem bo’ldim...”¹¹ Tamaraning o’limi oldidan aytgan bu so’zlarida katta ramziy ma’no bor. Hikoya g’oyasini farzandsizlikning oqibati yomon degan tor xulosa bilan belgilash asar mohiyatini tushunmaslik natijasidir. Asosiy g’oya – inson o’z tabiatiga qarshi yashasa, hayotdagi bo’shliqlarni noto’g’ri, nojoiz narsalar bilan to’ldirsa, bu uning halokatiga sabab bo’ladi degan badiiy hukmda namoyon bo’ladi. Kalamushlarga yem bo’lgan Tamaraning fojeasiga yozuvchi katta bir ruhiy ma’no yuklaydi. Hikoyada kalamushlar o’zlarining real funksiyalaridan tashqari ramziy ma’noda ham namoyon bo’ladilar. Kalamushlar bu insonlar o’z qo’li bilan yaratgan “muammolar”, o’z qo’li bilan tanlagan noto’g’ri tanlovlar. Kun kelib ular Tamaraga o’xshagan o’z sohiblarining kushandasiga aylanadi. Umriga zavol bo’ladi. Hikoya mohiyatida ana shunday axloqiy-ma’naviy xulosa qalqib turadi. Bunday psixologik holat, vaziyat muallif tomonidan kuchli mahorat bilan aks ettirilgan. Mahorat mazmun va shakl doirasida namoyon bo’lishi mumkin, chunki bu masala har qanday badiiy asarning butun borlig’ini qamrab oladi. Mazmun doirasiga asarning mavzusi, g’oyasi, qahramoni va sujeti kiradi. Ushbu hikoyada mavzu sifatida farzandsizlik va yolg’izlik masalasi ko’tarilgan. Asar g’oyasida qiyinchiliklardan qo’rqmay yashashga intilish, narsa yoki hayvonlarning inson o’rnini bosa olmasligi kabi masalalar yotadi. Hikoya sujetida Tamaraning Dilora bilan suhbat, Tamaraning yolg’izlikdagi holati asosiy planda talqin etiladi.

Hikoya o’ziga xos shaklga ham ega bo’lib, muallif nutqi va dialoglardagi nutqiy detallar aksar holda ohorlidir. Tamaraning ikki-uch kundan keyin “puf, sassiq bo’lib qolaman”, bolakayning “yaxshisi sizni pashshalardan qo’riqlab o’tiraman”, Tamaraning “Qizing sen uchun qanchalik aziz bo’lsa, vazam ham men uchun shunchalik aziz” kabi gaplar shular jumlasidandir. Asardagi pafos – ko’proq qahramonning ichki dunyosi tavsifida ko’zga tashlanadi. Hikoyada insoniy ulkan dard bor. U his va fikrga ta’sir etish orqali odamni hayajonga soladi, yozuvchi o’z hissi, dardini kitobxonga yuqtira olgan. Kitobxon o’zini hikoya qahramoniday his qiladi. Hikoyada pafos – ta’sirlanish, g’azablanish, achinish orqali aks etgan.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Худойбердиев Э. Адабиётшуносликка кириш – Тошкент: ЎАЖБНТ, 2008. – Б. 332.
2. Қуролбой қизи З. Қадимий қўшиқ: ҳикоялар. – Тошкент: Ўзбекистон, 2012. – Б. 3.
3. Султон И. Адабиёт назарияси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1980. – Б. 15.

¹¹ Қуролбой қизи З. Қадимий қўшиқ // ҳикоялар. – Тошкент: Ўзбекистон, 2012. – Б. 27.